



UDK: 193.4(575.1)

Amaliddin SULAYMANOV,
Guliston davlat universiteti dotsenti
E-mail: amaliddin_7203@mail.ru

TDSHU professori, t.f.d A.Doniyorov taqrizi asosida

PERIODS AND FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF ANTHROPOLOGY IN UZBEKISTAN

Annotation

The article examines the periods of development of anthropology in Uzbekistan, scientific research conducted by researchers and scientists during their period of activity, as well as the role of Uzbek anthropologists in the development of science.

Key words: Uzbekistan, Central Asia, anthropology, craniology, ethnography, expedition, Turkistan region, research.

ПЕРИОДЫ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ АНТРОПОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье рассматриваются периоды развития антропологии в Узбекистане, научные исследования, проведенные исследователями и учеными в период их деятельности, а также роль узбекских антропологов в развитии науки.

Ключевые слова: Узбекистан, Центральная Азия, антропология, краниология, этнография, экспедиция, Туркестанский край, исследование.

O'ZBEKISTONDA ANTROPOLOGIYA FANINING RIVOJLANISH DAVRLARI VA XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda antropologiya fanining rivojlanish davrlari, tadqiqotchi-olimlarning faoliyati davomida amalga oshirishgan ilmiy-tadqiqot ishlari, O'zbekiston antropologlarining fan rivojidadagi o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Markaziy Osiyo, antropologiya, kraniologiya, etnografiya, ekspeditsiya, Turkiston o'lkasi, tadqiqotlar.

Kirish. (Introduction). O'zbekiston, qadimgi davrlardan fan va madaniyat rivojlangan mamlakat hisoblanadi. Jumladan astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, tarix, falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik kabi fanlar bilan bir qatorda haykaltaroshlik, tikuvchilik, ganchkorlik, sopol buyumlar, oyna ishlab chiqarish kabi hunarmandchilik tarmoqlari gurkirab rivojlangan. Bugungi kunda O'zbekiston olimlari ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy merosni o'rganishib, o'zlarining yangi kashfiyotlari bilan fanimizni boyitib, jahon faniga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Antropologiya fan sifatida O'zbekistonda XX-asrning 20-yillaridan shakllana boshlaydi. O'zbekistonda antropologiya, odam va uning paydo bo'lishi to'g'risidagi biologik fan sifatida vujudga keladi [5].

Bosh tashabbuskor sifatida, tibbiyot sohasi vakili, odamning kelib chiqishi tarixiga o'ta qiziquvchan shaxs, Lev Vasilevich Oshanin bo'lganligini aytish mumkin [6]. Fan bilan shug'ullanish ishtiyoqi kuchli bo'lgan olim, O'zbekistonda birinchi antropologik kabinetni, so'ngra kafedrani tashkil qiladi, Markaziy Osiyo xalqlari antropologiyasi va etnogenezi masalalariga oid fundamental tadqiqotlarni amalga oshirib, bir qator asar, to'plam va maqolalar chop etadi.

O'zbekistonda antropologiya faniga asos solgan olimning ilmiy tadqiqot ishlarini, uning shogirdlari V.Ya.Zezenkova, Q.N.Najimov, T.Kiyatkina, A.Pulyanos, T.K.Xojayov, S.Mustafaqulov va boshqalar davom ettirishadi.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda antropologiya fanining vujudga kelishi va rivojlanishi, hozirgi xolatini ochib beruvchi tizimlashgan tadqiqotning mavjud emasligiga qaramasdan, O'zbekiston, Markaziy Osiyo xalqlari antropologiyasi va etnik tarixi to'g'risida, soha olimlari va tadqiqotchilarning ko'plab o'quv qo'llanma, monografiya, maqolalar va tezislari chop etilgan.

Shuning uchun mazkur maqolada, O'zbekistonda antropologiya fanining rivojlangan davrlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirgan holda, ochib berishga harakat qilinadi.

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada tarixiylik, tizimlilik va xolislik tamoyillari asos qilib olindi. Asosiy metodlar sifatida tarixiy-qiyyosiy, manbashunoslik va analitik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida mavjud ilmiy adabiyotlar, arxiv hujjatlari va ekspeditsiyalar materiallari o'rganilib, O'zbekistonda antropologiya fanining turli davrlardagi rivojlanish jarayoni bosqichma-bosqich tahlil qilindi.

- **Tahlil va natijalar.** O'zbekistonda antropologiya fanining vujudga kelishi va rivojlanishiga XX-asrning 20-yillarida to'plangan ma'lumotlar asos bo'lib xizmat qilishini nazarda tutgan holda, shuningdek antropologlarning amalga oshirgan ilmiy tadqiqot ishlarining ko'lamini tahlillari asosida uning rivojlanishini oltita davrga ajratishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Birinchi davr. XX-asrning 20-25-yillarini o'z ichiga olib, bu davrda O'zbekistonda antropologiya fanining ilk kurtaklari ko'rina boshladi. Antropologiya fani asoschisi L.V.Oshanin, mintaqada tibbiy-sog'lomlashtirish sohasida tadqiqotlar olib boradi. Faoliyati davomida etnik antropologiya, inson morfologiyasi va antropogeneziga oid nazariy masalalar bilan shug'ullana boshlab, mintaq xalqlari etnik tarixi va antropologiyasiga oid dastlabki faktik materiallarni to'play boshlaydi. Bunda unga olimlar V.V.Bartold, V.V.Bunak, V.I.Romanovskiy, N.G.Mallitskiylarning yaqindan bergan yordamlari, ularning Turkiston o'lkasi aholisi, etnik tarixi to'g'risida yozgan maqola va tezislari amaliy yordam beradi [1].

Antropolog-olim V.V.Bunakning amalga oshirgan ilmiy-tadqiqot ishlari, antropometrik tadqiqotlarni olib borish

metodikasiga oid mehnatlari endigina vujudga kelgan fanni rivojlanishi uchun juda muhim edi. L.V.Oshanin va uning shogirdlari olimning 1923-yilda chop etgan “О реакции агглютинации человеческих рас” ilmiy maqolasidan insoniyat irqi va uning xususiyatlariga xos dolzarb ma'lumotlarni olishda foydalanadilar. Antropolog olim V.V.Bunak o'z davrida, 1920-yilda “Antropologiya o'qitish metodikasi” nomli darsligini chop etgan edi. Ushbu darslik oxirigacha tizimga keltirilmagan bo'lsada, fan sohasida muhim yangiliklardan biri bo'ladi. Kezi kelganda aytish lozimki, ushbu dasturga o'xshash biron bir o'quv adabiyoti bu davrda xali Evropada ham mavjud emasdi. Olimning ushbu darsligidan O'zbekistonda antropologiya fanini rivojlanishida keng foydalaniladi. Olim o'zining darsligini 1941-yilda yangi tahrirda “Antropologiya” nomi bilan chop etadi. Bularning barchasi o'zbek antropologiyasining rivojlanishida katta yordam beradi [2].

1920-1925 yillarda O'rta Osiyo davlat universitetida L.V.Oshanin tashabbusi bilan antropologiyaga oid materiallarni to'plash jarayonida, turli yillarda mintqa xalqlari antropologiyasi, etnik tarixiga oid tadqiqotlar va ekspeditsiyalar olib borgan, shu hudud geografiyasi, tarixiga oid qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lgan olimlar bilan ilmiy hamkorligi, bir qator nazariy masalalarni echishda imkoniyatlar yaratib beradi. O'rta Osiyo tadqiqotchisi, sharqshunos, etnograf, arxeolog olim, geografiya fanlari doktori (1945), professor (1926), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1945), 120 dan ortiq geografiya, etnografiyaga oid asarlar muallifi N.G.Mallitskiy bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilganligi, mintqa tarixiga oid ko'plab yangi nazariy materiallarni qo'lga kiritishga sababchi bo'ladi. Olim 1920-yillarda Qozog'iston, Qirg'iziston hududlariga ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etadi va uning natijalari asosida 1924-yilda “Yag'nobliklar” nomli ilmiy ishini chop etadi [7]. Bu ishini antropologlar uchun ijobiy tomoni shunda ediki, bu paytgacha yag'nobliklar va ularning hayoti to'g'risida bironta tadqiqot olib borilmagan edi.

1925-yilda Antropologiya kafedrasining tashkil topishi O'zbekistonning fan olamida muhim yangilik bo'lib, bu davrning alohida yutuqlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ikkinchi davr. Bu davr 1926-1930-yillarni o'z ichiga olib, O'rta Osiyo davlat universitetining Sharqshunoslik, Tibbiyot fakulteti talabalariga, “Antropologiya”, “Antropologiya asoslari”, “Fiziologik antropologiya” kabi fanlardan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tishga kirishiladi. Shu bilan bir paytda O'zbekistonning bir qator ilmiy tadqiqot instituti va markazlari bilan hamkorlikda ekspeditsiyalar tashkil etiladi. Mintaqaning turli hududlariga uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalar natijasida bir qator materiallar to'planib, tahlil qilinadi.

Turkmanlarning tug'ma uzun boshligi, turkmanlarning skif-sarmatlardan kelib chiqqanligi [9], Old Osiyodan kirib kelgan aholi guruhlari antropologiyasi [10], O'rta Osiyo va Qozog'iston hududida xunlar, keyinchalik Markaziy Osiyo turk-mo'g'ul qabilalari keltirgan mo'g'uliy belgisi odamlarning paydo bo'lishi va tarqalishi [11] to'g'risidagi ilmiy tadqiqotlar shular jumlasiga kiradi.

Bu davrda antropologiya kafedrasida olim va tadqiqotchilari I.Maslova, L.Fokinalar shimoli-sharqiy Turkmanistonning Kalif tumanida, V.Ya.Zezenkova Baxarden tumanining Murchali qishlog'ida turkmanlarning bir qator qabilalarini antropologik jihatdan tadqiq qilishadi. Tadqiqot natijalarini kafedra professori L.V.Oshanin ilmiy tahlil qilib chiqadi va hududlarning barcha turkman qabilalari, irqiy jihatdan o'zaro o'xshash ekanligini, ular o'rtasidagi o'zaro farq mo'g'uliylikning nisbiy darajasi bilan farqlanishini aniqlaydi [21]. Olib borilgan antropologik tadqiqotlar natijasida, barcha o'rganilgan turkman qabilalari aholisida kaspiyorti irqi belgilari ustunlik qilishi aniqlanadi.

O'zbekiston antropologiya fani doirasida 1926-1930-yillarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va ekspeditsiyalar nafaqat mahalliy xalqlar bilan chegaralanib qolmasdan, balki turli tarixiy davrlarda mintaqaga kirib kelib joylashgan xalqlar antropologiyasi va etnik tarixi ham alohida o'rganiladi. 1926-1927-yillarda Buxoro, Samarqand, Karmana va Shahrisabz shaharlarida yashovchi yahudiylar antropologiyasi bo'yicha materiallar to'planadi [12]. O'zbekiston antropologlari o'z oldilariga, O'rta va Old Osiyoning braxitsefal evropoidlarini ajratish masalasini echish kabi vazifalarni qo'yadi. Ushbu davr oralig'ida antropologlar mintaqaning yahudiy aholisi antropologiyasiga oid fundamental tadqiqotlarni amalga oshiradi. Ushbu tadqiqotlar natijasida, yahudiylar to'g'risida qator faktik materiallar chop etiladi. Antropologlar bu davr ichida nafaqat yahudiylar bilangina cheklanib qolmasdan, mintaqaga turli tarixiy davrlarda kelib joylashgan arablar, forslar, balujlar va ozarboyjonlarning antropologiyasi va etnik tarixini tarixiy, arxeologik, lingvistik, etnografik va yozma manbalarga tayangan holda o'rganishga harakat qilishadi. 1927-yilda Qashqadaryo viloyatining Qamashi qishlog'i hududida yashovchi arablarni tadqiq qilishadi. 1929-yilda esa, kelib chiqishi Mashhaddan bo'lgan forslarni, Tabriz aholisi bo'lgan ozarboyjonlarni va mintaqaga dastlab Balujistondan Afg'onistonga so'ngra O'zbekistonga kelib joylashgan balujlarni atroflicha o'rganib chiqishadi [13].

Uchinchi davr. O'zbekistonda antropologiya fani rivojining bu davri 1931-1950-yillarni o'z ichiga olib, bir qator muhim ilmiy tadqiqot va tashkiliy ishlarni qamrab oladi. Bu davrning o'ziga xos tomoni shundan iborat bo'ldiki, O'zbekistonda antropolog kadrlarni tayyorlashga jiddiy kirishiladi. O'zbekistonda antropologiya fanining asoschisi L.V.Oshanin tomonidan, Kievda bo'lib o'tgan “Anatomlar, gistolog va morfologlarning butunittifoq konferentsiyasi”da birinchi bor, O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining irqiy tasnifi taqdim etiladi [14]. Antropolog L.V.Oshanin va shogirdlari tomonidan amalga oshirgan tadqiqotlar, mintaqaning mahalliy aholisining irqiy va morfologik jihatlari, o'zbek, tojik, turkman, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq va boshqa xalqlarning shakllanishida o'z hissasini qo'shgan, so'nggi mingyillikda mintaqaga kirib kelgan turkiy va eroniy tilli etnik guruhlarni ham to'liq qamrab oladi. O'zbekiston antropologlari taqdim etgan tasnifda bir qancha mahalliy irqi ajratib olinib, ular joylashgan va shakllangan hududlar aniqlab beriladi.

Bu davrda O'rta Osiyo davlat universiteti Biologiya fakultetida mintqa xalqlarining hozirgi davr antropologiyasini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yanada jadal olib boriladi. Arxeolog-olimlar tomonidan tashkil etilgan ekspeditsiyalar, nafaqat O'zbekiston balki mintaqaning turli hududlaridan deyarli barcha xronologik davrlarga oid muhim antropologik qazilma materiallarini to'plash imkoniyatini yaratadi. Toshkent vohasi, Zarafshon vodiysi, Janubiy Turkmaniston, G'arbiy va Markaziy Farg'onadagi o'rta asrlarga oid bir qator materiallar o'rganilishiga erishiladi [22]. Amalga oshirilgan ekspeditsiya va tadqiqot ishlarining ko'lamini oshib borishi, qo'lga kiritilayotgan boy antropologik materiallar, mutaxassis kadrlar-antropologlarni tayyorlash ishlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Universitetda antropologiya mutaxassisligi bo'yicha talabalarga umumiy va maxsus kurslar o'qitilishi yo'lga qo'yiladi. Shu bilan bir paytda Antropologiya kafedrasida talabalari uchun umumiy biologiyadan tashqari, arxeologiya, etnografiya va tilshunoslik fanlari bo'yicha ham maxsus kurslar o'tila boshlaydi.

O'zbekistonda mazkur davrda, Amir Temur va Temuriylar xokini o'rganish alohida o'rin tutishini ta'kidlab o'tish joiz [15]. Bu juda mas'uliyatli va nozik, bir paytda tahlilali ish bo'lgan. Bu tadqiqotlarda antropologlardan L.V.Oshanin, V.Ya.Zezenkova faol ishtirok etib, tadqiqotlarga boshchilik qilishadi. Olib borilgan tadqiqotlar

natijasida Amir Temur va Temuriylar shaxsi bilan bog'liq bir qator antropologik belgilar aniqlanadi. Shu bilan bir paytda ushbu davrda, ko'plab ekspeditsiyalarni tashkil etish davom ettiriladi. G'arbiy Pomir eroniy qabilalari, Surxondaryo viloyati aholisining antropologiyasi, Talas, Ettisuv, Qoraqalpog'iston, Nurota, Farg'ona va mintaqaning boshqa hududlarida yashovchi turli xalqlarning antropologiyasi bo'yicha tadqiqotlar O'zbekiston antropologiya fanining eng muhim, fundamental ilmiy izlanishlari sifatida mamlakat faniga munosib hissa qo'shishiga xizmat qiladi [8].

To'rtinchi davr. 1951-1980-yillarni o'z ichiga olib, O'zbekiston antropologlarining Markaziy Osiyo xalqlari antropologiyasi va etnik tarixi bo'yicha amalga oshirgan ilmiy tadqiqot ishlari va uyushtirilgan ekspeditsiyalari natijalarini sarhisob qilgan davr sifatida e'tirof etish mumkin. Antropologlarning mintaqada 25 yil davomida amalga oshirgan ekspeditsiya va tadqiqot ishlarining yakuniy xulosalariga bag'ishlangan "O'rta Osiyo xalqlari etnogenezi masalalari antropologik ma'lumotlar asosida" nomli maqolalar to'plami chop etiladi [13]. Bu davrda antropologiya fanining rivojlanishining o'ziga xos tomoni shundan iborat bo'ldiki, 1957-1959-yillar davomida amalga oshirilgan tadqiqotlar va ularning natijalari to'planib, "Антропологический состав населения Средней Азии и этногенез её народов" nomli uch jildlik to'plam sifatida chop etiladi.

Beshinchi davr. O'zbekistonda antropologiya fanining rivojlanishini bu davri 1980-2000-yillarni o'z ichiga olib, sohaga oid tadqiqotlarning bir muncha rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Bu davrda O'zbekistonda antropologiya

fanining ko'zga ko'ringan vakili T.Q.Xodjayov, mintaq xalqlari antropologiyasi va etnik tarixiga oid fundamental tadqiqotlarga, ekspeditsiyalarga bosh-qosh bo'lib, o'z atrofiga sohaning yosh mutaxassis-olimlarini birlashtirish orqali, bugungi kunda ham jahon antropologiya sohasida e'tirof etilayotgan muhim ilmiy natijalarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Antropologiya kafedrasining ko'plab bitiruvchilari, O'zbekiston milliy universiteti, Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti, Samarqand davlat universiteti, respublikamizdagi turli tarixiy xarakterdagi muzeylarda hamda qo'shni respublikalarning oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlarida mehnat faoliyatlarini davom ettirishadi. Respublika oliy ta'lim muassasalarining tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarida yoshlarga "Antropologiya asoslari", "O'rta Osiyo etnogenezi va etnik tarixi", "Fiziologik antropologiya", "O'rta Osiyo antropologiyasi", "Turkiy tilli xalqlar etnogenezi va etnik tarixi", "Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixi", "Antropologik tadqiqotlar metodikasi", "Tarixiy antropologiya" kabi ko'plab fanlardan saboq berishni davom ettirishadi. Bu davrda, O'zbekistonda antropologiya fanining rivojlanishi davomida, salmoqli ilmiy meros, antropologik tarixiy manbalar yaratiladi. Ko'plab olimlar avlodi tarbiyalanib, voyaga etkazish orqali O'zbekistonda ilmiy tadqiqotlar va fanning rivojiga munosib hissa qo'shiladi. Bu esa ushbu manbalardan fanning keyingi rivojlanish davrida, soha ilmiy xodimlari tomonidan keng foydalanishlariga poydevor yaratishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. / Соч. – М., 1965. Т. 3. – С.117-125; Бунак В.В. Методика антропометрического исследования (редактор). М., 1925; 2-е изд. 1927; 3-е изд. 1931; Дубов А. И. Профессор В. В. Бунак – выдающийся антрополог XX в. // Этнографическое обозрение. - 2001. - № 5. - С. 118-131.
2. Дубов А. И. Профессор В.В.Бунак – выдающийся антрополог XX в. // Этнографическое обозрение. - 2001. - № 5. - С. 131.
3. Гусева И.С. Особенности горизонтальной профилированности лицевого скелета некоторых современных антропологических типов: автореферат дис. ... кандидата биологических наук. Москва, 1963. 18 с.
4. Кияткина Т.П. Краниологический материал из катакомбных захоронений античного времени в Южной Туркмении // Научные труды ТашГУ. Вып. 235. – Т., 1964. – С. 110-115. Кияткина Т.П. Материалы к палеоантропологии таджикистана. – Душанбе: Дониш, 1976. – 187 с.
5. Кормилицын А.И. Экспедиции кафедры антропологии биолого-почвенного факультета ТашГУ за 1923-1959 гг. // Труды ТашГУ. Т. 261. – Т., 1964. – С. 37-42.
6. Кременцов Н.П. Краткая биография Л.В.Ошанина // Научные труды ТашГУ. Вып. 235. – Т., 1964. – С. 12-18.
7. Малицкий Н.Г. Ягнобцы // Известия Туркестанского отдела Русского географического общества. 1924. Т. 17.
8. Наджимов К. Антропологический состав населения Сурхандарьинской области // Труды ТашГУ. Вып. 143. – Т., 1958. – С. 27-32. Ошанин Л.В. Иранские племена Западного Памира. – Т., 1937; Зезенкова В.Я. К вопросу об антропологическом типе туркмен Самаркандской и Бухарской областей // Бюллетень САГУ. – Т. 1945. - № 4. – С. 18-20.
9. Ошанин Л.В. Тысячелетняя давность долихоцефалии у туркмен и возможные пути ее происхождения // Известия Среднеазиатского музея. Вып. I. – Т., 1926. – С. 132-172.
10. Ошанин Л.В. Данные по антропологии групп, переселившихся из Передней Азии. Среднеазиатские евреи и арабы. Т., 1953. – С. 50-52.
11. Ошанин Л.В. Большая монголоидная раса, пути её расселения и степень участия в происхождении турецких народов Средней Азии и Ближнего Востока // тезисы конф., посв 25-летию САГУ. – Т.: Изд-во САГУ, 1945. – С. 36-42.
12. Ошанин Л.В. К сравнительной антропологии этнических групп, пришедших из Передней Азии – евреев и арабов, и этнических групп Узбекистана – узбеков и таджиков // Материалы по антропологии населения Узбекистана. Вып. I. Ташкент-Самарканд: Госиздат УзССР, 1929. – С. 4-28.
13. Ошанин Л.В. Антропологический состав населения Средней Азии и этногенез ее народов в свете данных антропологии. Данные по антропологии народов ирана. Персы, азербайджанцы и белуджи / Ошанин Л.В., Зезенкова В.Я. Вопросы этногенеза народов Средней Азии в свете данных антропологии. Т., 1953. – С. 45-46.
14. Ошанин Л.В. Данные к географическому распространению главнейших антропологических признаков населения Средней Азии и опыт выявления основных расовых типов Средней Азии // Труды IV-Всесоюзного съезда зоологов, анатомов и гистологов. – Киев. 1931. – С. 312-314.
15. Ошанин Л.В. Антропологическое исследование скелетов Тимура и Тимуридов // Археология и антропология. Труды ТашГУ. Вып. 232. – Т., 1964. – С. 50-51.
16. Пулянос А.Н. «Обнаружение палеолитического человеческого черепа в Греции». Вопросы Антропологии, Москва. 1961. №8. 162 с.
17. Романовский В. И. Элементарный курс математической статистики. — М.-Л. Госпланиздат, 1939. - 359 с. С.45-49; Малицкий Н.Г. Ягнобцы // Известия Туркестанского отдела Русского географического общества. 1924. Т. 17.
18. В.П.Алексеев, Т.Ходжайов, Х.Халилов. Население верховьев Амударьи по данным палеоантропологии. Ташкент: Фан, 1984. 390 с. Ходжайов Т., Халилов Х. Черепа эпохи бронзы из могильников Джаркутан и Бустан (раскопки 1975 г.). История материальной культуры Узбекистана. 1975. Вып. 14.